

«ASAKA» BANK MUOMALAGA CHIQARGAN PLASTIK KARTOCHKALAR MIQDORI 1,9 MLN.DONADAN OSHDI

«Asaka» bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi «Respublikada bank plastik kartochkalarini asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2017 yil 15 fevraldagi «Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida »gi Qarorlarini ijrosini ta'minlash maqsadida plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, bank tomonidan 2017 yil 1 iyul holatiga 1 921 371 dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 143 909 donaga ko'paydi, 11 611 dona terminal o'rnatildi.

Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi ham ko'paymoqda. 2017 yil birinchi yarmi davomida plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar miqdori 1 133,5 mlrd.so'mni, shundan savdo aylanmalari hajmi 928,3 mlrd.so'mni tashkil qildi.

«Asaka» bank tomonidan o'z mijozlari va shu bilan birgalikda boshqa tijorat banklari mijozlari bo'lmish korxonalar va tashkilotlarda «ish haqi» loyihalarini joriy etish bo'yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. 2017 yil 1 iyul holatiga 12 474 ta korxonalar va tashkilotlarda «ish haqi» loyihalari joriy etildi.

Plastik kartochkalarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida qo'shimcha infokiosklar xarid qilindi va o'rnatildi. Hozirda bank tomonidan o'rnatilgan 66 dona infokiosk va 27 dona bankomat orqali plastik kartochkalar egalariga tezkor xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda. 2017 yil birinchi yarmi davomida plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan kommunal to'lovlarning hajmi 60,0 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Plastik kartalardan foydalanuvchilar infokiosk va bankomatlar orqali «SMS inform» xizmatiga ulanib, mazkur xizmat yordamida hisobiga pul mablag'larini kirim yoki chiqim qilinishi, savdo-servis tarmoqlaridagi transaksiyalar to'g'risida tezkor ma'lumotlarni olish va boshqa axborotlarni olish imkoniyatiga egadirlar. 2017 yil 1 iyul holatiga mazkur xizmat turidan foydalanuvchilar soni 360 214 nafar mijozni tashkil etdi.